

O‘QUVCHILARDA O‘QISH MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA SHARQ ALLOMALARINING QARASHLARI

Xayitova Firuza Abdullayevna

TerDU boshlang‘ich ta‘lim kafedrası o‘qituvchisi

***Annotatsiya:** mazkur maqolada, o‘qish madaniyati – kitobxonlikni shallantirishning tarixi, hozirgi kunda unga qaratilayotga e‘tibor, qadimgi Sharq mutafakkirlarining kitob va uni o‘qishga bo‘lgan qarashlari, ularning hayotida ilm olishning ahamiyati, ma‘naviyatni shakllantirishda kitobxonlikning tutgan o‘rni haqida fikr bildirilgan.*

***Tayanch so‘zlar:** o‘qish, kitob, o‘qish madaniyati, kitobxonlik, ma‘naviyat, mutolaa, axborot olish, ilm, kitobga muhabbat.*

Kirish. Tarixiy taraqqiyot davomida insoniyat ovoz, nutq, yozuv, kitob kabi zarur moddiy va ma‘naviy ashyolarga ega bo‘lgan. Evolyutsion (asta-sekin oddiydan murakkabga tomon borish) tarzda qo‘lga kiritilgan bu ashyolar tsivilizatsiyaning navbatdagi bosqichlari uchun asos sifatida xizmat qilmoqda. Insoniyat tafakkur orqali o‘z xatti-harakatlarini boshqara olsa, nutq orqali fikrini atrofida qilmoqda. Insoniyat tafakkur orqali o‘z xatti-harakatlarini boshqara olsa, nutq orqali fikrini atrofida qilmoqda. Prezidentimiz bu borada quyidagi fikrlari o‘rinli “...O‘qish-o‘rganish, doimiy izlanish, yangilikka, taraqqiyot cho‘qilarini egallashga intilib yashash bir umr hamrohingiz bo‘lsin.

Nega deganda, buyuk mutafakkir Yusuf Xos Xojib aytganlaridek, “Dunyoda ikki turli inson haqiqiy inson sanaladi: biri - o‘rgatuvchi, biri – o‘rganuvchi”. Men sizlarning har biringizga ana shunday haqiqiy inson bo‘lish baxti nasib etishini tilayman”[1].

O‘qish madaniyati –olamni, dunyoni o‘rganishning asosiy vositasi bo‘lib, u turli darajadagi ko‘plab bilimlarni o‘z ichiga oladi; ijtimoiy-madaniy va axborot makonida shaxsning psixikasi, nutq faoliyati, adabiy, madaniy, asosiy faoliyati (o‘yinlar, o‘qishlar, mehnat), muloqot va mentalitetining rivojlanish xususiyatlarini o‘z ichiga oladi; bunday ko‘p funktsionallik umrbod ta‘lim jarayonida o‘qish madaniyatini rivojlantirishda ob‘ektiv qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

Bugungi kunda “o‘qish madaniyati”, “kitobxonlik madaniyati”, mutolaa madaniyati, “axborot olish madaniyati” kabi atamalar bilan qo‘llanilib kelayotgan ijtimoiy hodisa taqriban deyarli bir ma‘noni anglatadi. “Mutolaa” so‘zi arabcha o‘qish degan ma‘noga ega bo‘lsada, bugungi kunda u kitob o‘qishdan ko‘ra kengroq tushunchani anglatmoqda. A.Umarov fikricha: “Mutolaa madaniyati ijtimoiy guruhlar,

uyushmagan va alohida individlarning umumiy ma'lumot olishga yo'naltirilgan jarayon, xulq-atvor va faoliyatlari mazmuni hamda tarkibiy tizimlarida yuz beruvchi o'zgarishlar majmuini ifodalovchi bilimlar, me'yorlar, ijtimoiy hodisalar va boshqa atributlardir". Bizning fikrimizcha, bu jarayonni aynan kichik yoshdagi maktab o'quvchilari doirasida tadqiq etganda "o'qish" terminini ishlatish maqsadga muvofiqdir. Chunki, o'quv-biluv jarayoni o'qish, o'rganish, rivojlanish tizimida amal qiladi.

Hozirga qadar ilmiy-nazariy adabiyotlarda va amaliyotda bir qator hodisalar o'qish madaniyati tushunchasi ostida yuritiladi. Jumladan, o'qish madaniyati bolalarga badiiy adabiyotni to'g'ri tushunish yo'llarini, undan estetik zavq olishni o'rgatadi[3]. Yuqorida keltirib o'tilganidek, O'qish madaniyatini tarbiyalash jarayonini "kitobxonlik madaniyati" termini tarzida ham qo'llaniladi. Chunki aynan o'qish madaniyatini egallagan shaxsga nisbatan "kitobxon" terminini ishlatish o'rinlidir. Safo Matchon ta'biri bilan aytganda: "Kitobxonlik-o'qilgan kitoblar soni bilan belgilanmaydi, balki u tushunib o'qish, ya'ni maqsadli o'qishdir. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, kitobxonning yozuvchi aytmochi bo'lgan fikrini nechog'li o'qishni, ya'ni asar "tili"ga tushunishi kitobxonlik madaniyati, talanti darajasi ko'rsatadi. Shu tufayli adabiyotimiz talantli yozuvchilar bilan birga talantli kitobxonlarga ham hamisha ehtiyoj sezadi"[4]

Ta'lim-tarbiya beshigi hisoblangan Sharqda kitobxonlik masalasi hamisha o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Bunga sabab ko'hna yurtdan chiqqan buyuk allomalar va ularning asrlar osha o'z qimmatini yo'qotmay kelayotgan dono o'gitlaridir. Zero, ushbu bebaho pand-nasihatlari o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'nan barkamol, axloqan yetuk bo'lib tarbiyalanishida muhim ahamiyatga ega.

Mamlakatimiz rahbari SH.Mirziyoev ta'kidlaganidek, "O'z milliy tarixi va madaniyatiga, dunyoda eng katta boylik bo'lgan intellektual va ma'naviy salohiyatga chuqur hurmat bilan yondashish, uni asrab-avaylash va boyitish, shu asosda yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash jahondagi har bir davlat va jamiyatning moddiy va ma'naviy taraqqiyotida, hech shubhasiz, hal qiluvchi o'rin egallaydi"[1]. Bu esa, milliy ta'lim va tarbiya mezonlarini, o'tmishdagi buyuk mutafakkirlarning ilmiy merosi va qarashlarini yoshlarga yetkazish masalasi har qachongidan ham dolzarb ekanligini va muammoga kitobxonlik ko'nikmasini shakllantirish orqali erishish mumkinligini ko'rsatadi.

Kitob dinlarning vujudga kelishida ham muhim vosita bo'lganligini ko'rish mumkin. Xususan, Muso alayhissalom "Tavrot", Iso alayhissalom "Injil" ("Bibliya") hamda payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) "Qur'on" kabi muqaddas kitoblar orqali kishilar o'rtasida o'zlari mansub bo'lgan din asoslarini targ'ib etgan. Alloh tomonidan

so‘nggi uch nafar payg‘ambarga muayyan kitoblarning nozil qilinishi bu shakldagi moddiy ashyoning ma‘naviy-ruhiy va intellektual imkoniyatlarini to‘la namoyon qilishga asos bo‘la oladi. Zero, og‘zaki bayon etilgan fikrlarni avloddan avlodga uzatishda ularda ifoda etilgan asl maqsad, g‘oya, qarashga ziyon yetadi: ba‘zan shaklan, ko‘p holatlarda mazmunan o‘zgaradi. Yozma bayon etilib, boshqalarga uzatilgan har qanday fikr, g‘oya, qarash o‘zining asl “qiyofasi”, shakli, shu bilan birga, mazmunini saqlab qoladi. Xatti-harakat, ijtimoiy axloqning tub negizi, kishilar uchun ma‘naviy-axloqiy yo‘riqnoma bo‘lgan diniy manbalar – “Injil”, “Tavrot”, “Qur‘on”dagi g‘oyalarning aslidek saqlanishi, o‘zgartirilmasligi yagona tartib-qoidalar sifatida barqaror bo‘lishini ta‘minlaydi. Shu sababli ularning kitob holda mavjudligi muhim amaliy ahamiyatga ega.

Bundan qariyb uch asr muqaddam ajdodlarimiz tomonidan muqaddas ma‘naviy kitob – “Avesto” ideografik yozuv kashf etilgan. Mutafakkir Abu Rayhon Beruniy guvohlik berishicha, arablar Turonni bosib olgach, otashparastlarning muqaddas “Avesto” kitobini biror nusxa ham qoldirmay yoqib yuborishgan. Shuningdek, ma‘naviy, suryoniy, eftalit, braxma, sug‘diy, xorazmiy, boxtariy yozuvlarida bitilgan har qanday yodgorlikni yo‘qotishga uringanlar. Shunga qaramay, ajdodlarimiz o‘zining ma‘naviy boyliklarini turli yo‘llar bilan saqlab qolishgan. “Avesto” kitobi yoqib yuborilganidan keyin ikki asrcha vaqt o‘tganiga qaramay, uni yodlaganlarning xotirasidan qayta yozib olingan[5].

Kitob o‘tmishni bugun va kelajakka bog‘laydigan o‘ziga xos ko‘prikdir. Jahon madaniyati tsivilizatsiyasiga o‘z hissasini qo‘shgan O‘rta Osiyolik allomalar, islom olamidagi buyuk zotlar bilim olish masalasiga jiddiy e‘tibor bergan. Buyuk hakim Abu Ali ibn Sino betob bo‘lgan Buxoro amiri Nuh ibn Mansurni davolagach, amir tomonidan “Senga bu yordaming uchun nima ato qilay?” degan savoliga u saroy kutubxonasidan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lishni afzal bilgan edi. Zero, kitob insonlarni komillikka yetaklovchi ma‘naviy ozuqa bo‘lgan. “Men bilmasligimning bilimdoniman”, “Bilishga intilmaslik uyat”, – degan edi bu haqda mutafakkir Abu Ali ibn Sino[6]. Allomaning mazkur fikrlari bilimga bo‘lgan intilishning inson uchun hayotiy ehtiyoj ekanligini anglatib turadi.

Ilm – o‘zlikni bilmakdir. Kitob o‘qish yo‘li – o‘zligini anglash yo‘lidir. Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Alisher Navoiy, Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi ko‘plab mutafakkirlarning nom qozonishi, asrlar o‘tsa hamki o‘z qadr-qimmatiga ega kashfiyotlari zamirida tinimsiz o‘qib-o‘rganish, izlanishlar turishi sir emas. Shu bois o‘zbek oilalarida kitobga muhabbat, kitobni avaylab-asrash, kitobxonlik, g‘azalxonlik qadimiy an‘analardan bo‘lib, farzand tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etgan.

Abu Rayhon Beruniyning asarlarida ilm egallash umuminsoniy qadriyatlarni o'rganish debochasi ekanligi qayd etiladi. Ziyoli kishining xalq manfaati va atrofida qadriga befarq emasligi yuqori baholanadi. Alloma ilmning afzalligini faqat boylik to'plash emas, balki uning vositasida muhim narsalarga ega bo'lish deb biladi[7].

Falsafiy talqinida esa inson uchun beqiyos ahamiyatga ega bo'lgan erkinlik, tinchlik, ijtimoiy tenglik, haqiqat, ma'rifat, go'zallik, yaxshilikka undovchi sifatlarini tarbiyalashga yo'naltirish asosi ekanligi mujassam.

Sharq pedagogikasining negizida farzandlarni ilmga oshno qilib o'stirish orqali ularda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishga alohida e'tibor beriladi. Mutafakkirlar bunday mas'uliyatli vazifani, avvalo, oiladan, ota-ona ibрати misolida boshlash kerakligini uqtirishadi. Qadimdan kitobxonlar davrasida dong'i ketgan Abulqosim Firdavsiyning "Shohnoma"si, Nizomiy Ganjaviy, Amir Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiylarning mislsiz "Xamsa"larini o'qish orqali shohnomaxonlik va xamsaxonlik, Ahmad Yassaviyning "Hikmatlar"i, shayx Sa'diyning mashhur "Guliston" va "Bo'ston" asarlari, Umar Xayyom ruboiylarini oila davrasida mutolaa qilish zahirida yassaviyxonlik, jomiyxonlik, navoiyxonlik singari kitobxonlik an'analari shakllangan. Jumladan, navoiyxonlik kechalarida faqat Navoiy asarlari mutolaasi bilan cheklanilmagan, balki uning ijodiy an'alarini davom ettirgan izdoshlarining asarlari ham o'qilib, muhokama qilingan. Ajdodlarimizning komil inson haqidagi o'g'itlari va pand-nasihatlari, xalq og'zaki ijodining ibratomuz namunalari bolalarning ma'naviy yetukligiga kitobxonlik orqali erishish haqidagi qarashlar o'z ifodasini topganligini qayd etish o'rindir.

Kitobxonlik an'anasi XX asrda Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat, Oybek va boshqa so'z san'atkorlari asarlarini oilaviy o'qish orqali qodiriyxonlik, cho'lponxonlik, fitratxonlik, oybekxonlik ko'rinishida davom etgan. O'sha vaqtlarda aksariyat kitobxonlar "O'tgan kunlar" romanini yoddan bilganlar. Ta'kidlash joizki, kitobxonlik inson ma'naviyatini yuksaltiradigan, oliyjanoblik hislarini tarbiyalaydigan, sabrga o'rgatadigan mehnat turidir. Kitob o'qishga o'rgangan insonning dunyoqarashi keng, fikri teran bo'lib, atrofda yuz berayotgan voqea-hodisalar mohiyatini ongli ravishda tushunishga va xulosa chiqarishga harakat qiladi.

Abu Nasr Forobiyning e'tiroficha, inson aqli, fikri uning ruhiy jihatdan yuksalishining mahsulidir. Inson bilimlarni o'zlashtirar ekan, borliqda tirik mavjudotning yaratilish tarixigacha bo'lgan ma'lumotlarni o'zlashtira oladi, ularni yaratadi, ilmiy jihatdan asoslaydi.

O'zbek xalqining ulug' ma'rifatparvari, mutafakkiri va buyuk shoiri Alisher Navoiy yoshlarni tarbiyalash ishiga alohida e'tibor berib, bolalarni ilm-hunarni,

mehnatni sevisga undab, o'rganilgan ilm va hunarni xalq, vatan manfaatlarini yo'lida sarf qilish zarurligini uqtirib, aql, ilm insonning eng go'zal va zaruriy fazilatlaridan biri, har bir kishining eng muhim burchi ilm olishdir, deb hisobladi[8].

Navoiyning fikricha, ilm-fanni egallash uchun yoshlikdan boshlab astoydil o'qish-o'rganish kerak: "Yoshligingda yig'gil bilimni, qarigach sarf qilg'il ani", – degan shoirning o'zi ham kichikligidan o'qishga beriladi. U yoshligidanoq ko'p she'rlarni yod bilgan. Jumladan, Fariddin Attorning "Mantiqut-tayr" ("Qush nutqi") asarini bolalik chog'laridayoq qayta-qayta o'qib, yod olgan. SHoir keyinchalik maktab va maorif masalalariga ham katta ahamiyat berdi. U mehnatkash xalq bolalarini o'qitish va tarbiyalash uchun maktablar ochish va madrasalar qurish ishlariga homiylik qildi.

Alisher Navoiy Astrobodda surgundaligida amir Husayn Boyqaroga yozgan xatida o'g'il va qiz bolalar uchun maktablar ochishni talab qilgani, shaxsan o'zi madrasalar qurishda tashabbus ko'rsatgani buning yaqqol dalilidir. Navoiyning fikricha, maktab xalqqa nur keltiradi, unga to'g'ri yo'l ko'rsatadi, bolalarni bilimli kiladi. U o'zining "Ixlosiya" madrasasi yonida maktab ochib, bolalarni o'qitish va tarbiyalash uchun zarur sharoit yaratib, buning uchun lozim bo'lgan mablag' ajratadi. Navoiy dars beruvchini quyoshga o'xshatadi va bu quyosh o'z atrofidagi yulduzlarga nur sochadi, ya'ni mudarris "abjad – xonalar"ga, hali ilmdan bexabar bo'lgan toliblarga ilm nurini sochadi, ma'rifat beradi, deydi[9].

Hazrat Alisher Navoiy o'ziga eng yaxshi do'st sifatida kitobni bilgan va uni beminnat ustozga qiyoslagan. "Kitob beminnat ustoz. Har daqiqa bizni donishmandlarning bilim xazinasidan oshno etadi", – deya farzand tarbiyasida kitob eng yaxshi ustoz ekanligini ta'kidlab, ota-onalarni farzandlariga yoshlikdan kitobga mehr uyg'otishi kerakligini aytadi.

Kitobxon bolalar o'zlariga ishongan, tashabbuskor, fidoyi, o'z yurti tarixiga qiziquvchan va vatanparvar bo'ladi. Abdurahmon Jomiy kitob mutolaa qilish, ilm o'rganish, ma'rifatli bo'lish insonning bu dunyodagi eng maroqli ishlaridan biri ekanini shunday tarannum etadi:

Kitobdan yaxshiroq do'st yo'q jahonda,
G'amxo'ring ham g'amli bu zamonda.

U bilan qol tanho, hech bermas ozor
Joningga yuz rohat berar har onda.

Kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyati inson hayotida suv va havodek muhimligini necha asrlar avval ulug' mutafakkir Abu Rayhon Beruniyning fikrlarida ham uchraydi. Jumladan, ta'lim jarayonida o'quvchini toliqtirib qo'ymaslik masalasi birinchi o'ringa qo'yiladi. Har doim bir xillikka yo'l qo'yish bolani zeriktirishi,

natijada o‘qishdan ko‘ngli sovushi yuz berishi qayd etilgan. Agar bir masaladan boshqasiga o‘tib turilsa, – deydi mutafakkir, – o‘quvchi xuddi turli bog‘larda sayr qilgandek, boshqasiga o‘tib zavqlanadi[10].

Kitobxonlik masalasi bo‘yicha uzoq o‘tmish ajdodlarimiz aytgan yuqoridagi fikrlar bugungi kunda ham barcha yoshdagi kitobxonlar uchun birdek daxldor. Zero, kitobxonlik madaniyatining asosiy jihati kitoblarni to‘g‘ri tanlay bilish va ularning xilma-xilligidadir.

Yusuf Xos Hojib ham bolalarga yoshlikdan ilm o‘rgatmoq va ilm olishga ularni tayyorlamoq lozimdir, deydi. Kitob yozilmaganida edi, hikmatni, bilimni qanday qilib bilarding?” – deganida mutlaqo haq edi. Kitobxonlik, ya‘ni kitob o‘qish unga amal qilish ham barchada bir xil kechavermaydi. Kitob mutolaa qilish va unga amal qilish insonni ma‘naviy yuksalish va ma‘rifiy kamolot sari yetaklaydi. Adib “Qutadg‘u bilig” asarida shunday baytni keltiradi:

Yana bir hikmat bor: hazrati odam –
Bilim, aqlu idrok sabab muhtaram[11].

Bilim bamisoli jilov, u kishini barcha yomonliklardan tiyib turadi. Bilim manbai esa kitobdadir. Kitoblar bizni qorong‘ulikdan olib chiqadi. Ya‘ni, g‘ofil kishi o‘qishi bilan asta-sekin g‘aflatdan uyg‘ona, qorong‘ulikdan yorug‘likka chiqa boshlaydi.

O‘quv qayda bo‘lsa, ulug‘lik bo‘lar,
Bilim qayda bo‘lsa buyuklik bo‘lar[12].

Allomaning fikrlaridan ko‘rinadiki, kitob o‘qishga intilish, ma‘rifatli bo‘lish insoniylikning asl mezonidir. Olim ezgu ishlarning barchasi ilm tufayli amalga oshirilishini aytadi. O‘sha davrdayoq “Bilim xatto osmon sari yo‘l ochur” deya kitob o‘qish, ilm olishni inson kamolotining asosi sifatida ko‘rsatadi[13].

Kitob o‘qish va unga amal qilish bobida kitobdan harf emas, balki ma‘no izlash va mazmunini “chaqish”, undan to‘g‘ri xulosa chiqara bilish muhim o‘rin tutadi. Binobarin, biz shunday xislatlarni bolalikdan kitobxonlik orqali shakllantira olsak maqsadga muvofiq bo‘ladi. O‘zbek xalqida qadimdan kitob mutolaa qilish ma‘naviy qadriyat sifatida ulug‘langan. Buyuk allomalarning har biri hayot yo‘liga nazar tashlamaylik, kitob ular umrini mash‘al singari yoritganini anglaymiz.

Kuzatishlar ko‘rsatdiki, o‘quvchilarning kitobxonlik darajasi ko‘p jihatdan adabiyot rivoji va jamiyat taraqqiyotiga bog‘liq. Binobarin, Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘atit-turk”, Al-Xorazmiyning” Mafotix al-ulum”, Nosiriddin Burhoniddin Rabg‘uziyning “Qissasi Rabg‘uziy”, Xondamirning “Makorim ul-axloq”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” va Alisher Navoiy, Zahriddin Muhammad Bobur, Binoiy va Husayn Voiz Koshifiylarning qator asarlarida kitobxonlikka oid qimmatli fikrlar bayon qilingan. Kitob va kitobxonlikka bo‘lgan munosabat hamisha mutafakkir va

shoirlarning diqqat markazida bo'lgan. Jumladan, shoira Anbar Otinning ustoz Dilshodi Barno Ho'qondiy ham kitobga bo'lgan hurmatini quyidagi misralarda ifodalaydi:

Eng yaqin do'sti aziz, xamdardu darmondur kitob,
Hamdamim, hamsuhbatimu hamkardondir kitob.
Menga ilm o'rgatuvchi ustoz bilimdondir kitob,
Dil g'uborin artuvchi g'amxo'ri jondir kitob,
Tanda jonin xizmatiga rangdagi qondir kitob.

O'quvchilarda kitobxonlikni rivojlantirishni oiladan, oilaviy kitobxonlikni esa ayollar va onalar kitobxonligidan boshlash ayni muddaodir. Zero, farzand ijobiy ko'nikmalarni onadan o'zlashtiradi. Yuqoridagi fikrlardan ko'rish mumkinki, shoira va olim ayollar mutolaa va ilm olishga alohida e'tibor berganlar. Klassik adabiyot namoyandasi akademik shoir G'afur G'ulom ham kitob mutolaasi va unga bo'lgan muhabbatni shakllantirish bo'yicha shunday deydi:

Kitob degan nurdir, har kitobdan ming jahon.

Mehr-muhabbatimiz so'nmas yulduzday qolur[14].

Buyuk mutafakkir Muhammad Jabalrudiy tarbiyada kitobning ko'plab imkoniyatlarini keltiradi. Allomaning ta'rificha kitob yoqimli suhbatdosh, yolg'izlikda va g'amli kunlarda yaqin hamrohdur. Uning so'zlaridan ko'ngilga zahmat yetmaydi, aksincha, faqat fayzli naf yetadiki, bunday do'stni boshqa joydan topish mushkuldir. Kitobda barcha ilm mujassamki, u barchani uzoq o'tmish va kelajakdan xabardor qilib turadi [15].

Donolardan so'rashdi: "Dunyodagi eng buyuk lazzat nima? Eng buyuk lazzat bu – kitobdan o'qigan ilmingni hayotda tatbiq etishing, shu orqali umringni saodatli qilishingdir", – deya javob berdilar.

Imom Rabboniy aytadiki, ilm hamma muhtoj bo'lgan ozuqadir. Yaxshi kitoblar insonlarning axloqiy ehtiyojlarini qondirib, salbiy illatlarini tuzatadi. Kitobning shifo deyilishi ham bejiz emas. Qalbimizdagi yomon illatlarni u tuzatadi aslida. Yolg'onchilik, toqatsizlik, ochko'zlik, tanballikni yenga boshlaydi. U oyna kabi xatolarimizni anglatib, to'g'ri yo'lni ko'rsatadi.

Bu borada donishmand Suqrotning o'qib-o'rganmasdan turib foyda va zararining farqiga bora olaman deydi odamlarni tentak deb bilish kerakligi haqidagi fikrlari bejiz emas[16].

Darhaqiqat, kitob o'qimay turib dunyoni anglash, nafaqat dunyoni, balki o'zlikni ham bilib bo'lmaydi. Har bir ziyoli insonning kelajagi kitob bilan. Inson o'z oldiga qo'ygan orzu-maqсадlariga chuqur bilimi, izlanishi orqali erishadi. Bilim manbai esa kitobdir.

Ma'rifatparvar Ishoqxon Ibratning kitobxonlikni qo'llab-quvvatlash bobidagi faoliyati tahsinga loyiq. Zero, uning o'z uyida "Kutubxonai Ishoqiya" nomi ostida kutubxona tashkil etishi zamirida ham millat bolalarini ziyoli qilish maqsadi mujassamligini ko'rish mumkin.

Manbalarda keltirilishicha, mazkur kutubxonada o'zbek, tatar, turk, fors-tojik va rus tillarida yuzlab kitoblar mavjud bo'lib, undan qishloqdagi qiziquvchilar keng foydalangan. Ibrat o'z kutubxonasida foydalanuvchilarga kitob olish va qaytarishga mo'ljallangan maxsus daftarlarni yuritish tizimini yo'lga qo'ygan. Kichik yoshdagi o'quvchilarning kitob o'qishlarini o'zi nazoratga olgan [17].

Donishmand Ahl ibn Xorun qalam va kitobni bir-biridan ayro holda tasavvur qilmaydi. Ya'ni, qalam ko'ngil buruni, qonasa sirlari sahifalarga yoyiladi. Tabiiyki, bundan ijod yaraladi. Kitob go'yo bir bog'ki, yozuvlari uning gul-chechaklaridar [18].

Muhammad Jabalrudiy ta'riflarida kitob yaqin sirdosh, yoqimli suhbatdosh sifatida tilga olinadi. Uning o'quvchi zehni o'tkirlashtirishi, zavqini va lug'at zaxirasini oshirishi madh etiladi. Yolg'iz qolganda munis hamrohligi, o'tmish va kelajakdan xabardor qilishi, kamolotga yetkazishi, odob-axloq, bilimning koni ekanligi tavsif etiladi [19].

Xulosa. Yuqoridagi fikrlardan anglashiladiki, o'tmishda yashab ijod etgan allomlarimiz kitob mutolaasini eng muhim tarbiya ashyosi deb bilganlar. Intelektual inson tarbiyasini esa aynan ilm olish va kitob o'qishdan boshlash kerakligini qimmatli pand- nasihatlaridan ko'rish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, o'qish madaniyati shakllangan – ma'naviy barkamol kitobxon tarbiyasida oila muhim va mustaham poydevor hisoblanadi. Shu bois jamiyatda kitobxonlikni rivojlantirish, mutolaa madaniyatini takomillashtirish borasidagi har qanday faoliyatda oila bilan hamohang, hamfikir ish yuritish ko'zlangan maqsadlarga erishishga munosib zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Sh. Mirziyoyev. “Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz”, Toshkent, O‘zbekiston, NMIU, 2017 yil, 423-bet
2. Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 24 йиллигига бағишланган маросимдаги маърузаси / Халқ сўзи. – Тошкент, 2016 йил 8 декабрь.
3. К. Қосимова ва бошқалар. Она тили ўқитиш методикаси.Т. Носҳир.2009.296-б.
4. С. Матчонов ва бошқалар, “Ўқиш дарсларида замонавий технологиялардан фойдаланиш”, Ношир, Т. 2010.14-б.
5. Сафаров О., Маҳмудов М. Оила маънавияти. – Тошкент: Маънавият, 1998. – 104-б.
6. Одоб бўстони ва ахлоқ гулистони /Араб, форс, турк, татар ва озарбайжон тилларидан Маҳмуд Ҳасаний таржимаси. – Тосҳкент: Фан, 1994. –218-б.
7. Абу Райҳон Беруний: Ўйлар, ҳикматлар, нақллар, шеърлар. – Тошкент: Ёш гвардия, 1973. – 44-б.
8. Алиқулов Ҳ. Гуманистик мерос ва шахс маънавий камолоти. –Тошкент: Фалсафа ва ҳуқуқ, 2006. – 87-б.
9. Болалар адабиёти. Педагогика ва мактабгача тарбия билим юртлари учун қўлланма. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – 39-б.
10. Абу Райҳон Беруний. Ўйлар, ҳикматлар, нақллар, шеърлар. Тўпловчи ва нашрга тайёрловчи А.Ирисов. – Тошкент: Ёш гвардия, 1973. – 22-б.
11. Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг (“Саодатга йўлловчи билим”). Ҳозирги ўзбек тилида баён қилувчи ва сўзбоши муаллифи Б.Тўхлиев. – Тошкент: Юлдузча. 1990. – 192-б.
12. Марказий Осиё мутафаккирлари. Ўзбекистон Республикаси Фан ва технологияларни ривожлантиришни мувофиқлаштириш қўмитаси. – Тошкент: Тошкент ислом университети “Янги нашр”, 2011. – 37–38-б.
13. Нишонова С. Комил инсон тарбияси. – Тошкент: Истиқлол, 2003. – 169 б.
14. Нигматова М.М. Мактабгача ёшдаги болаларда китобхонлик кўникмаларини шакллантиришнинг ижтимоий-педагогик асослари: Пед. фан. номз. ...дисс. – Тошкент: 1995. – 137-б.
15. Машиқзамин – ҳикмат бўстони. Таржимон, тўпловчи ва изох муаллифлари: Ҳамиджон Ҳомидий ва Маҳмуд Ҳасаний. – Тошкент: Шарқ, 1997. – 39-б.

16. Нигматова М.М. Мактабгача ёшдаги болаларда китобхонлик кўникмаларини шакллантиришнинг ижтимоий-педагогик асослари: Пед. фан. номз. ...дисс. – Тошкент: 1995. – 137-б.
17. Ибрат. Ажзий. Сўфизода. – Тошкент: Маънавият, 1999. – 38-б.
18. Ахлоқ бўстони ва одоб гулистони. – Тошкент: Фан, 2016. – 54-б.
19. Nayitova, F. I., & Rahmatillayeva, M. (2017). Boshlang 'ich sinf o 'quvchilarida kitobxonlik ko 'nikmasini shakllantirish yo 'llari. In *научный поиск в современном мире* (pp. 129-131).
20. Хайитова, Ф. А. (2018). Важность использования рисунков при описании текста работы на уроках начального класса. In *фундаментальные основы инновационного развития науки и образования* (pp. 38-41).
21. Хайитова, Ф. А., & Хуррамов, Х. М. Значение национальных ценностей в воспитании молодежи. *Вопросы науки и образования*, 88.
22. Хайитова, Ф. А., & Хуррамов, Х. М. У. (2019). Педагогические идеи мыслителей о профессии учителя в обществе. *Наука и образование сегодня*, (6-1 (41)), 80-82.
23. Abdullaevna, H. F., & Doniyorovna, R. M. (2020). Requirements for the formation of reading culture. *Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR)*, 9(5), 240-245.
24. Хайитова, Ф. А. (2018). Игра как практика развития на начальном этапе обучения. *Гуманитарный трактат*, (25), 114-116.